

BACHADON BO‘YNI O‘SMALARI

Qodirova Madinabonu Mirzamaxmud qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

ANNOTATSIYA

Bachadon bo‘yni kasalliklarida bachadon bo‘yni raki o‘lim sababi tariqasida ayollarda uchraydigan xavfli o‘smalar orasida 7-8 o‘rinda turadi. Epiteliy ichidagi rak aksari 30 yoshli ayollarda uchrasa, invaziv rak 40 yoshli va undan katta ayollarda uchraydi. Ushbu kasallikni gistologik tuzilishini bilish rakning qaysi bosqichda ekanligini aniqlashga imkon beradi. Jarayonni erta bosqichlarida aniqlash esa ayollar o‘rtasidagi o‘lim xavfini kamaytirishga, davo choralarini qo‘llashga imkon beruvchi omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Malignizatsiya, adenokarsinoma, qo‘ziqorinsimon rak, giperxrom, polimorf.*

АННОТАЦИЯ

Рак шейки матки занимает 7-8 место среди самых опасных опухолей у женщин как причина смерти. Большинство внутриэпителиальных видов рака возникает у женщин в возрасте 30 лет, тогда как инвазивные виды рака возникают у женщин в возрасте 40 лет и старше. Знание гистологической структуры этого заболевания позволяет определить стадию рака. Выявление процесса на ранних стадиях является фактором, позволяющим снизить риск летального исхода у женщин, применить лечебные мероприятия.

Ключевые слова: *Злокачественность, аденокарцинома, грибовый рак, гиперхромный, полиморфный.*

ABSTRACT

Cervical cancer is the 7-8th most dangerous tumor in women as a cause of death. Most intraepithelial cancers occur in women in their 30s, while invasive cancers occur in women in their 40s and older. Knowing the histological structure of this disease allows you to determine the stage of cancer. Identifying the process in the early stages is a factor that allows to reduce the risk of death among women, and to apply treatment measures.

Key words: *Malignancy, adenocarcinoma, fungal cancer, hyperchromic, polymorphic.*

Bachadon bo‘ynida turli patologik jarayonlar: tug‘ma anomaliyalar, yallig‘lanish jarayonlari va o‘smalar, poliplar uchraydi. Bachadon bo‘yni poliplari 2-5 foiz hollarda uchraydi. Ular odatda endoservikal kanalda yuzaga keladi. Oyoqchali bo‘lishi, diametri 3 sm ga boradigan sferik yoki hemisferik shaklda bo‘ladi. Ba‘zan bachadon kanalida paydo bo‘lib, bachadon bo‘yninibg yo‘g‘omlashib ketishiga yoki tashqariga chiqib qolishiga olib keladi. Poliplar yumshoq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Mikroskop bilan tekshirib ko‘rilganda fibromiksomatoz stromasi ko‘zga tashlanadi, unda kengaygan endoservikal bezlar bo‘ladi. Poliplar epiteliysi silindrsimon bo‘lib, shilimshiq ishlab chiqaradi. Surunkali yallig‘lanish boshlanganida silindrsimon epitaliy ko‘p qavatli yassi epiteliyga aylanib, yara bo‘lib ketishi mumkin. Va bu jarayonda malignizatsiya hodisasi kamdan-kam uchraydi.

Bachadon bo‘yni raki o‘lim sababi tariqasida ayollarda uchraydigan xavfli o‘smalar orasida 7-8 o‘rinda turadi. Epiteliy ichidagi rak aksari 30 yoshli ayollarda uchrasa, invaziv rak 40 yoshli va undan katta ayollarda uchraydi. Aytish mumkinki, ayollarda 83,3% xolatlarda yassi xujayrali rak turi uchramoqda. Aynan katta yoshli ayollarda rakning bu turi endofit shaklda o‘sib davoning qiyinlashiga va prognozining yaxshi bo‘lmasligiga sabab bo‘lmoqda. Gistologik jihatdan bachadon bo‘yni bachadonning qolgan qismidan farq qiladi va bachadon bo‘ynini uchta sohaga ajratishimiz mumkin, bular: endoserviks, transformatsiya sohasi va ektoserviks.

Bachadon o'smalarining ikki xil turi yassi hujayrali o'sma va adenokarsinomalar hisoblanadi. Yassi hujayrali o'sma kasalligi 90 %ni tashkil qiladi. Bachadon bo'yni yassi hujayrali karsinomasi transformatsiya zonadagi hujayralardan hosil bo'lsa, adenokarsinoma esa odatda endoservikal kanalda paydo bo'ladi. Bachadon bo'yni saratonining asosiy sababi HPV-odam papilloma virusidir. Odam papillomasi virusi - bu kelgusi hayot davomida deyarli 6 hildagi saraton kasalligiga olib keladigan keng tarqalgan virusdir. Saraton rivojlanishi, inson HPVni yuqtirib olganidan keyin namoyon bo'lguniga qadar bir necha yil, ko'pincha o'nlab yillar o'tadi.

Bachadon bo'yni o'smasi 4 ta bosqichdan iborat.

Erta bosqichi 1A, 1B va 2A larni o'z ichiga oladi.

Mahalliy rivojlangan bachadon o'smasi 2B, 3 va 4A bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bachadon bo'yni o'smasining rivojlangan bosqichi 4B bosqichidan iborat.

1A bosqichida o'sma bachadon bo'ynida o'sadi mikroskop orqali ko'rinadi va uning chuqurligi 5 mmdan, kengligi 7 mm dan oshmaydi.

1B bosqichida o'sma bachadon bo'ynida o'sadi va mikroskopsiz yoki mikroskop bilan ko'rinadi va kengligi 4smdan oshmaydi.

2A bosqichida bachadon bo'ynidan tashqarida o'sadi va 4 smdan oshmaydi.

2B o'simta bachadon bo'yni va bachadondan tashqarida ya'ni bachadon bo'yni va bachadon yonidagi to'qimalarga qarab o'sadi. Lekin tos bo'shlig'i devorlariga qarab o'smaydi.

3A bosqichida o'simta qinning pastki qismlariga qarab o'sgan bo'ladi.

3B bosqichida esa o'sma tos bo'shlig'iga qarab o'sib, siydik yo'lini to'sib qo'yadi va buyrakning kengayishiga (gidronefroz) va buyrakning ishdan chiqishiga olib keladi.

4A bosqichida o'sma tos bo'shlig'idan tashqariga, to'g'ri ichak va siydik pufagiga qarab o'sadi.

Bachadon bo'yni epitelisining I va II bosqichlarida kuzatiladigan struktura o'zgarishlari qaytar bo'ladi. III bosqichida esa displaziya sodir bo'lib, hujayralar atipikligi kuchayib boradi. Ushbu hujayralar polimorf, yadrolari giperxrom bo'ladi va epiteliy qutbligini yo'qotadi. Bu hujayralarda patologik mitoz amalga oshadi va bu

jarayon epiteliyning yuza qavat hujayralarida ham sodir bo'ladi, biroq atipik hujayralar stromaga o'tmaydi, balki "joyida qolgan rak"ni hosil qiladi(epiteliy ichidagi rak). Jarayonning keying IV bosqichi invaziv rak hisoblanadi va bu jarayon I bosqichdan boshlab hisoblaganda 10-15 yilni tashkil etadi. Patologik anatomiyasida displaziya va arak ko'pincha silindrsimon epiteliyning ko'p qavatli yassi epiteliyga aylanish joyida, ya'ni tashqi teshik halqasining atrofida paydo bo'ladi. Invaziv rak uch xil shaklda

1. Qo'ziqorinsimon rak
2. O'sma o'rtasi nekrozlanishidan payd bo'lgan yara
3. Endofit ravishda o'zib, pastdagi stromaga ham kirib boradigan infiltrative rak

Bachadon bo'yni rakining mahalliy asoratlari- ikkala siydik yo'li bsilib, bekilib qolishi, rakning qovuq yoki to'g'ri ichakka teshib chiqishi ko'pincha o'limga sabab bo'ladi. Oqibati esa rakning bosqichi va davo usuliga bog'liq. Klinik manzarasida intra epithelial rakning I bosqichi simptomsiz o'tadi va instrumental tekshiruvlar paytida aniqlanadi.

Xulosa qilib rasmiy ma'lumotlarga ko'ra har yili O'zbekistonda 1660 nafar ayolga bachadon bo'yni saratoni yuzasidan tashxis qo'yiladi. Afsuski, har yili mamlakatda bachadon bo'yni saratonidan 585 dan ortiq ayollar vafot etadi. Bugungi kunda HPA vaksinalari 20 yil davomida barcha daromad guruhlariga mansub bo'lgan o'nlab mamlakatlarda joriy etildi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, HPA bilan emlash juda havfsizdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 9 yoshdagi qizlarga HPA vaksinasining ikki dozasini tavsiya qiladi. 2019 yil avgust oyida Sog'liqni saqlash vazirligi UNICEF ko'magida mamlakatning barcha mintaqalaridagi maktab o'qituvchilari va tibbiyot xodimlarini o'qitadigan asosiy trenerlar guruhi ushun yo'naltiruvchi uchrashuvlarni tashkil qildi. HPA vaksinasi sizning qizingizni kelgusi hayotida saratonning ayrim havfli turlaridan ishonchli, samarali va uzoq muddatli himoya bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S.Abdullaxo‘jayeva. Odam patologiyasi 1999. 420-422
2. Fertil va keksa yoshli ayollarda bachadon bo‘yni xavfli o‘smalari tahlili. Journal oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences-2021. Soxibova Z.R.
3. www.osmosis.org
4. www.unicef.org.